

BOLALARDA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINING RIVOJLANISHI

Darobov Rahmonjon Ravshan o'g'li

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Pedagogika va psixologiya fakulteti Pedagogika va psixologiya yo'nalishi
302-guruh talabasi

Annotatsiya. Bolalar psixikasining taraqqiyotini ilmiy kuzatishga dastlab mashxur tabiatshonoslardan Charl'z Darvin yo'l ochdi. Charl'z Darvin bola psixikasining taraqqiyotini kuzatishga doir o'zining kundalik xotira tipidagi asarini nash etgan edi. Psixikaning eng yuksak bosqichi bo'lmish ong masalasiga kelsak, ong uzoq evolutsion taraqqiyot natijasi sifatida faqat insongagina xosdir. Ong ijtimoiy-tarixiy sharoitda odam mehnat faoliyatining tarkib topishi hamda til yordamida boshqa odamlar bilan munosabatda bo'lishi natijasidir.

Kalit so'zlar: tajovuskorlik, zararli odatlar, "og'ishgan xulq", "tarbiyasi og'ir", "deviant" atamasidan foydalanish qonuniymikan? Tarbiyasi og'ir o'smirlar" xulqi mavzusi sohalararo va munozarali xarakterga ega.

Demak, ongning birinchi xarakteristikasi unig turli bilimlar yig'indisidan iborat ekanligidir. Ongning ikkinchi xarakteristikasi odamning o'z-o'zini anglash protsessida namoyon bo'ldi. Odam tirik mavjudodlar tarixida birinchi bo'lib ob'ektiv olamdan ajralib chiqdi va o'zini tevarak-atrofdagi muhitga qarama-qarshi qilib qo'ydi. Ma'lumki, odam har doim biror bir faoliyatda bo'ladi. Har qanday faoliyatning esa o'z maqsati va motivlari bo'ladi. Faoliyatda kirishishdan oldin maqsad va motivlarni belgilash ongning uchinchi xarakteristikasi hisoblanadi. Bolalar psixologiyasi turli yoshdagi bolalarning psixik taraqqiyot qonuniyatlarini ilmiy ravishda ochib berishi kerak. Bolalar psixologiyasi I.P.Pavlovning oily nerv faoliyati haqidagi ta'limoti asosida turli yoshdagi bolalar psixik proseslari va xususiyatlarining nerv-fiziologik asoslarini o'rganishi kerak. Ana shu asosiy vazifalari bilan bir qatorda bolalar psixologiyasi yana bir necha muxim masalalar bilan xam shug'ullanadi. Masalan, bolalar psixologiyasi-bolalar psixik taraqqiyotiga aktiv ta'sir qiluvchi omillarni aniqlab beradi. Bolalar psixologiyasi bu vazifalarni hal qilar ekan, buning bilan u tarbiyachilarning va ota-onalarning ta'lim-tarbiya yuzasidan olib boradigan ishlarini ilmuy asosda tashkil qilishga yordam beradi.

Bolalar psixologiyasining boshqa fanlar bilan aloqasi. Bolalar psixologiyasi bir qancha fanlar bilan uzviy aloqada bo'lib, bu fanlar qo'lga kiritayotgan

faktlardan, qonuniyatlar hamda kashfiyotlardan keng foydalanadi. Bolalar psixologiyasi ta'lim-tarbiyaning maqsadi, yo'l-yo'riqlari va vazifalariga doir fikrlarni pedagogika fanidan oladi. Lekin shuning bilan birga bolalar psixologiyasi pedagogika faniga ham yaqindan yordam beradi. Bolalar psixologiyasi bir qator biologik fanlar bilan, birinchi navbatda, bolalar anatomiyasi hamda fiziologiyasi bilan bog'liqdir. Bu fanlar bolaning yoshi ulg'ayishi bilan yuzaga keladigan anatomic va fiziologik o'zgarishlar haqida ma'lumot beradi hamda psixik taraqqiyot yo'lini ilmiy tushunishga yordam beradi. Bolalar psixologiyasi bolalar gigienasi, bolalardagi kasalliklarni o'rganuvchi pediatriya va bolalar psixopatologiyasi bilan ham bog'liqdir. Bu fanlar bolalar psixik taraqqiyotining normal borayotganligini chuqurroq bilish va normal taraqqiyotdan burilish sabablarini anglash imkoniyatini beradi. Bolalar psixologiyasi bolalar adabiyoti bilan ham ma'lum darajada aloqadordir. Bolalar psixologiyasi bolalarning shaxsiy xususiyatlarini o'rganishda tushuntirishda bolalar adabiyotidan, xususan, avtobiografik asarlardan keng foydalanadi.

Bolalar psixologiyasi tarixi. Psixologiya tarixi-bu avvalo insoniyat tomonidan hayvonlarga va insonga xos bo'lgan psixik hayot hodisalari haqidagi bilimlarning asta-sekin to'planib borish tarixidir. Insonning o'z-o'zi haqidagi bilimlarni to'plab hamda chuqurlashtirib borishidir. Albatta, psixologiya tarixida turlicha qarashlar va yo'nalishlar bo'lishiga qaramasdan, bu fanning predmati, ya'ni hayvon va insonlarga xos bo'lgan psixika, psixik hayot birdaylicha qolaveradi. Tarixiy jihatdan psixologiyaning o'rganish predmeti emas, balki shu predmetni tushunish, psixik hayot mohiyatini tushunish o'zgarib keldi. Psixologiya predmetini tushunishdagi muhim o'zgarishlar, yangi psixologik tekshirish metodlarining yaratilishi hamda ularning keng tatbiq qilinishi, ilmiy-falsafiy tafakkurning umumiy yo'nalishi psixologiya fanining tarixiy taraqqiyotidagi xususiyatlarni belgilab berdi.

Bolalarning yoshoga muvofiq rivojlanishini o'rganish ishlarida psixologlar oldida bolalar psixikasining rivojlanishini tekshirish metodlarini, ularning yoshiga xos xususiyatlarini aniqlash metodlarini ishlab chiqishdek yana muhim bir vazifa turadi. Har bir fanda o'z predmetining mazmuniga qarab, bir qancha metodlar qo'llaniladi. Zarur bo'lgan faktlarni qidirish, ularning sodir bo'lish sabablarini aniqlash va isbotlash ilmiy tekshirish metodlari vositasida bajariladi. Bu narsani ta'kidlab o'tish kerakki, barcha fanlarning yagona metodi dialektik materializm metodologiyasidir. Barcha fanlarning xususiy metodlari shu metodologiyaga asoslanadi.

Bolalar psixik hayotiga oid qonuniyatlarni o'rganuvchi bolalar psixologiyasi ham dialektik materializm metodologiyasiga asoslanadi va boshqa hodisalarga nisbatan o'rganilishi ancha qiyin bo'lgan nozik psixologik hodisalarning asli mohiyatiga ilmiy asosda bilib olishi mumkin bo'lgan bir narsa deb qaraydi. Dialektik materializm

prinsiplariga asoslangan bolalar psixologiyasi murakkab aks ettirishdan iborat bo'lgan sub'ektiv hodisalarni ularning ob'ektiv sabablari bilan birgalikda, ya'ni tirik materiyaning eng murakkab turi bo'lgan miyadagi fiziologik proseslar hamda kishining butun psixikasi, ongida aks etadigan jamiyatning moddiy negizi, undagi konkret ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan birgalikda o'rganadi. Bolalar psixologiyasi murakkab psixik taraqqiyot qonuniyatlarini o'rganishda determinizm, ya'ni narsa va hodisalarning sababiy bog'liqligi prinsipiga asoslanadi.

Ma'lumki, bolalar psixologiyasi va pedagogik psixologiya umumiy psixologiyaning asosiy metodlaridan foydalanadi. Umumiy psixologiyaning asosiy metodlari kuzatish va eksperiment metodlardir. Bulardan tashqari, bir qancha yordamchi metodlar ham bor (suhbat metodi. faoliyat mahsullarini o'rganish metodi, anketa metodi va boshqalar).

Modellashtirish metodi. Model o'rganilayotgan biron psixik hodisalarning yasama andozasi hisoblanadi. Boshqa metodlardan modellashtirish metodining farqi shundaki, bu metod yordamida ayrim psixik proseslar bevosita emas, balki bivosita ya'ni model yoki vosita bilan o'rganiladi. Biroq psixik prosesning (ko'rsh, eshitish, taktil sezgilari kabi) modelini yuzaga keltirish uchun shu psixik proses haqida chuqur va to'la bilimlarga ega bo'lish talab qilinadi. Shuning uchun modelning mukammal va adekvat (ya'ni o'rganolayotgan ob'ektga nihoyatda o'xshash) bo'lishi ko'p jihatdan o'rganilayotgan psixik proses haqidagi bilimlar darajasiga bog'liqdir.

Bola psixikasining rivojlanishi o'ta murakkab va qarama-qarshiliklarga ega bo'lgan prosesdir, har qanday boshqa rivojlanishdagi kabi, bunda ham miqdor o'zgarishlari sifat o'zgarishlariga, o'tishlarga, "sakrashlar"ga olib keladi. Masalan, bolada so'z boyligining asta-sekin ortib borishi tilning Grammatik qurilishini egallashga, ayrim xatti-harakatlar va yurish-turishlarning ko'p marta takrorlanishi esa shaxsda muayyan ko'nikma, odat, qat'iy xususiyatlar kabilarning shakllanishi bilan yakunlanadi. Bola psixikasi rivojlanishining eng umumiy qonuniyatlariga, birinchidan izchillik integratsiyasini, ya'ni bolaning dastlabki tarqoq psixik holatlarini shaxsning barqaror psixik xislatlariga, muayyan hodisalarga nisbatan ayrim-ayrim qarashlarni yaxlit dunyoqarashga birlashtirish; ikkinchidan, bola shaxsidagi ayrim proseslar, funksiyalar va xislatlarning notekis rivojlanishining; uchinchidan, ba'zi funksiyalar kamchiliklarni boshqa funksiyalar bilan to'ldirilishini (kompensatsiya) ta'minlovchi plastiklikni kiritish mumkin. Bola psixikasining integratsiyasi, masalan, alohida predmet va hodisalarni to'liq idrok qilish asosida kuzatuvchanlikning, ayrim mehnat topshiriqlarini mehr-muhabbat bilan bajarish asosida mehnatsevarlikning shakllanishiga yaqqol namoyon bo'ladi.

Psixika rivojlanishining notekisligi hayotning hamma davrlarida sodir bo'lish mumkin. Masalan, maktabgacha yoshda ayniqsa nutq, o'smirlik yoshida bilishga qiziqish, ilk yigitlik yoshlarda mantiqiy (logik) tafakkur va hokazolar jadallik bilan rivojlana boradi. Qator psixologlar aniqlashiga ko'ra, bola psixikasi rivojlanishida asosiy ichki harakatlantiruvchi kuchlar avvalo quyidagilar hisoblanadi:

- eski, ya'ni allaqachonlar erishilgan imkoniyatlar bilan yangi ehtiyojlar o'rtasidagi ziddiyatlar;
- eski va yangi xulq shakllari o'rtasidagi ziddiyatlar;
- real hayotning mazmuni va uning bola ongida aks etish shakllari o'rtasidagi ziddiyat.

Sanab o'tilgan ziddiyatlar ustida qisqacha to'xtalib, misollar keltiraylik.

Endigina tug'ilgan bola yangi qo'zg'atkichlarga nisbatan orientirovka reaksiyalariga ega bo'ladi. Mana shularning fiziologik asosida keyinchalik qiziquvchanlik, bilishga qiziqish, o'zi uchun ma'lum bo'lgan hamma narsalarni shaxsiy faoliyat doirasida qo'shishga intilish kabi xislatlar rivojlanib boradi. Bolaning yurish-turishlari va xatti-harakatlari, odatda dastlab taqlidiy xarakterda bo'ladi, ya'ni u kattalarning xatti-harakatlari va yurish-turishlaridan nusxa ko'chiradi. Shunday qilib, bolaning psixik rivojlanishi - bu shaxsda mavjud bo'lgan proseslar va xususiyatlarning takomillashuvi. Shuningdek, ular asosida yangi, yanada yuksakroq sifatlar va xususiyatlarning shakllanishidir. Psixikaning rivojlanishi shaxs aktivligi, ya'ni bolaning faoliyati protsesida ijtimoiy muhit va tarbiyaning hal qiluvchi ta'sirida sodir bo'ladi. Psixikaning rivojlanishi to'qtovsiz yuzaga keladigan ichki Insoniyat mavjudligining muhim shartlaridan biri - bola tarbiyasi hisoblanganligi bois, u dunyoga kelmasdanoq tarbiyaviy tadbirlar boshlab yuboriladi. Shunday bo'lsa-da, jamiyatda xulq-atvorida salbiy illatlarga moyil, ijtimoiy me'yorlarni qabul qilolmaslik xohishi, xatti-harakatlarini nazorat qila olmaydigan bolalarni uchratamiz. Ularni tabiatan shunday xulq-atvorga ega deb, e'tibordan chetda qoldirish yoki chora-tadbirlar ishlab chiqmaslik jamiyat uchun kattadan-katta yo'qotishlarga olib keladi. Shu bois, tarbiyasi va xulq-atvorida o'zgarishi bo'lgan bolalarga yordam ko'rsatuvchi kishilar psixologlar, pedagoglar hisoblanadi. Chunki, "tarbiyasi og'ir" bolalarda bir qator o'ziga xos tipik illatlar kuzatiladiki, ular:

- Ota-onalar, pedagoglar va boshqa katta yoshdagilar bilan munosabatda
- O'rtoqlari, sinfdoshlari va boshqa tengdoshlari bilan munosabatda
- O'ziga munosabatda va o'zini o'zi tushunishda
- Ichki yagonalik, boshqalar bilan do'stlasha olmasligi
- O'qishdagi qiyinchiliklarini boshdan kechiruvchi kabi.

Bugungi kun psixologik-pedagogik tajribalar “tarbiyasi og‘ir” bolalarga yordam ko‘rsatish uchun quyidagi tartibda ish tutishni taqazo etmoqda:

Yosh jihatlariga qarab profilaktika va psixokorreksiya ishlarini boshlash talabi.

Chunki, “tarbiyasi og‘ir” bolalarga o‘smirlik yoshiga xulqidagi buzilishi qat’iy shakllangan bir davrda profilaktik va korreksion tadbirlarga qo‘l uriladi. Aslida xulq-atvorida o‘zgarish yaqqol namoyon bo‘lgan davrida unga chora ko‘rishni kutib o‘tirmaslik lozim. Shu bois boshlang‘ich maktab yoshidayoq maqsadli profilaktika va psixokorreksiya ishlarini boshlash maqsadga muvofiq. Balki undan oldin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent “O‘zbekiston” – 2017 y.
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va faravon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. “O‘zbekiston” NMIU, 2016y.
3. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. “O‘zbekiston” NMIU, 2016 y.
4. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida» gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»., Toshkent, 1997 y.